

## Hamkorlik-muvaffaqiyatlar garovi

2021-yil 20-fevral kuni soat 11:00da "Turon bank" ATB ilmiy - innovatsiya o'quv xonasida "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti professor-o'qituvchilari, doktorantlar hamda talaba yoshlar uchun navbatdagi seminar-trening bo'lib o'tdi. Seminarda "Turon bank" ATB Chakana xizmatlar departamenti direktori Ravshan Shuxratovich Fayziev ma'ruza qildi. Seminarni "Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" fakulteti dekani R.Xakimov kirish so'zi bilan ochib berdi.



Seminarda Bank tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati, bank tizimida amalga oshirilayotgan operatsiyalar, bugungi kunda bank tizimida faoliyat olib borayotgan hodimlarga qo'yilayotgan talablar to'g'risida atroflicha ma'lumotlar berildi. Seminarda ishtirokchilar tomonidan o'zlarini qiziqtirgan savollarga to'liq javoblar olishdi, shuningdek, tadbir qizg'in bahs-munozaralar asosida o'tdi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**